Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvga raqamli texnologiyalarni joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslariga qarashlar	895
Suyunov Dilmurod Xolmuradovich, Xabibullayeva Shirinxon Toxir qizi	
Xalqaro standartlar asosida moliyaviy instrumentlar hisobini va auditini takomillashtirish.....	902
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Внедрение и адаптация исламского банкинга в экономике узбекистана	906
Б.Б.Ахмаджанов, М. С.Шукруллаева, Д.Р.Сафаева	
Kichik biznesning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyatini baholash uslubiyoti.....	911
Ermatov Akmaljon Adxamovich	
"Neyromarketing" asosida o'zbekiston turizm brendi tahlili	916
Narziqulov Elbek Farxod o'g'li	



“NEYROMARKETING” ASOSIDA O‘ZBEKISTON TURIZM BRENDI TAHLILI

Narziqulov Elbek Farxod o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi

ilmiy tadqiqot markazi Phd mustaqil izlanuvchisi

Alfraganus universiteti katta o'qituvchisi

ORCID: 0009-0001-6951-8399

Annotatsiya: Maqolada neyromarketing konsepsiyasi asosida O'zbekistonning rasmiy turizm brendi — www.uzbekistan.travel veb-sayti va “Discover New Uzbekistan” promoroligi vizual, semantik va emotsional mezonlar bo'yicha tahlil qilingan. Tadqiqotda limbik tizim, vizual korteks, ongosti stimullar va aks ettiruvchi neyronlar faoliyati asosida integrallashgan neyrosemantik yondashuv qo'llanilgan. Tahlil natijalari brendning vizual boyligi va madaniy obrazlar orqali hissiy aloqani shakllantirishga urinilayotganini ko'rsatadi, biroq interaktivlik, UX dizayn va konversiyaviy triggerlar jihatidan kamchiliklar aniqlangan. Xulosa sifatida, raqamli turizm kommunikatsiyasini neyromarketing mezonlari asosida optimallashtirish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: Neyromarketing, vizual tizim, turizm, stumul, kontekst tahlil, brend, filtr, sematik qidiruv.

Abstract: The article analyzes the official tourism brand of Uzbekistan — the website www.uzbekistan.travel and the promotion “Discover New Uzbekistan” based on the concept of neuromarketing, based on visual, semantic and emotional criteria. The study used an integrated neurosemantic approach based on the activity of the limbic system, visual cortex, preconscious stimuli and reflective neurons. The results of the analysis show that the brand is trying to form an emotional connection through visual richness and cultural images, but shortcomings were identified in terms of interactivity, UX design and conversion triggers. In conclusion, it is recommended to optimize digital tourism communication based on neuromarketing criteria.

Key words: Neuromarketing, visual system, tourism, stimulus, context analysis, brand, filter, semantic search.

Аннотация: В статье анализируется официальный туристический бренд Узбекистана — сайт www.uzbekistan.travel и акция «Откройте для себя новый Узбекистан» на основе концепции нейромаркетинга, основанной на визуальных, семантических и эмоциональных критериях. В исследовании использовался комплексный нейросемантический подход, основанный на активности лимбической системы, зрительной коры, предсознательных стимулов и рефлекторных нейронов. Результаты анализа показывают, что бренд пытается сформировать эмоциональную связь посредством визуального богатства и культурных образов, но были выявлены недостатки с точки зрения интерактивности, UX-дизайна и триггеров конверсии. В заключение рекомендуется оптимизировать цифровую туристическую коммуникацию на основе критериев нейромаркетинга.

Ключевые слова: нейромаркетинг, визуальная система, туризм, стимул, контекстный анализ, бренд, фильтр, семантический поиск.



KIRISH

XXI asr turizm sanoati jadal rivojlanayotgan va yuqori raqobatga ega bo'lgan muhitda iste'molchilarning qaror qabul qilish mexanizmlari tobora murakkablashib bormoqda. An'anaviy marketing yondashuvlari, xususan, klassik reklama va oddiy vizual taqdimotlar, zamonaviy iste'molchilar ongida kuchli emotsional va ongosti ta'sir uyg'otishda yetarlicha samaradorlikni yo'qotmoqda. Shu bois, so'nggi yillarda marketing tadqiqotlarida va amaliyotida neyromarketing konsepsiyasiga nisbatan qiziqish sezilarli darajada ortgan.

Neyromarketing — bu inson miyasi faoliyati, hissiy reaksiyalar va kognitiv jarayonlarning mahsulot, xizmat yoki brendga bo'lgan munosabatga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadigan multidisiplinar yondashuv bo'lib, u nevrologiya, psixologiya va marketing fanlarining integratsiyasi asosida shakllanadi. Ushbu yondashuv orqali marketing strategiyalarining samaradorligini oshirish, iste'molchi xulq-atvorini bashorat qilish va emotsional bog'lanish orqali brend sodiqligini mustahkamlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Ayniqsa, turizm sektorida iste'molchilarning tanlovlari ko'pincha ratsionallikka emas, balki hissiy sezgilar va ongosti stimullarga asoslanadi. Mehmonxona tanlash, yo'nalish rejalashtirish yoki madaniy tajriba izlash kabi qarorlar — ko'pincha vizual (rasm, rang), audial (musiqa, tovush), hamda affektiv (ruhiy muvozanat, ishonch) omillar ta'sirida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, neyromarketing vositalarining qo'llanilishi nafaqat reklama samaradorligini oshirish, balki foydalanuvchi tajribasini ongosti darajada optimallashtirish imkonini ham yaratadi.

Bugungi kunda xalqaro miqyosda fMRI, EEG, biometrik sensorlar, ko'z harakati trekingi kabi neyrotehnologiyalar asosida yaratilgan usullar marketing amaliyotlariga faol integratsiya qilinmoqda. Biroq, O'zbekiston turizm sohasida ushbu yondashuvlarning qo'llanishi hali keng ko'lamda shakllanmagan. Bu esa, avvalo, neyromarketingning mahalliy miqyosda amaliy samarasini isbotlovchi tadqiqotlar yetishmasligi bilan izohlanadi.

Shu munosabat bilan, ushbu maqola O'zbekistonning rasmiy turizm veb-sayti www.uzbekistan.travel va unga ulanadigan promo-kontent — “Discover New Uzbekistan!” videorolik misolida neyromarketing yondashuvlari asosida vizual va emotsional stimullarning iste'molchi qarorlariga ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotdan maqsad — turizm marketingida neyroestetik, semantik va UX/UI elementlarining rolini aniqlash, hamda ularning iste'molchi xulq-atvoriga qanday ongosti va hissiy ta'sir ko'rsatishini aniqlashtirishdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

So'nggi yillarda turizm marketingida inson miyasi faoliyatini chuqur o'rganishga asoslangan neyromarketing yondashuvlari alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Neyromarketingni marketing amaliyotiga integratsiya qilish orqali brendga bo'lgan munosabatni emotsional, ongosti va kognitiv darajalarda boshqarish imkoniyati yuzaga keladi (Zaltman, 2003; Kumar et al., 2020). Ushbu yondashuv asosan limbik tizim, ko'rish korteksi, aks ettiruvchi neyronlar, ongosti stimullar, va sensorli tajriba kabi nevropsixologik mexanizmlarga asoslangan (Damasio, 1994; Rizzolatti & Craighero, 2004).

Fortunato va boshq. (2014) neyromarketingni neyroilm va marketing fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan yangi multidisiplinar yo'nalish sifatida ta'riflaydi. U inson miyasi mahsulot, xizmat va reklama bilan o'zaro ta'sirini chuqur o'rganadi. Ayniqsa turizm sohasida qarorlar hissiy va irratsional xatti-harakatlarga tayanishi bois, limbik tizim, dopamin ajralishi va aks ettiruvchi neyronlar orqali turist xatti-harakatini bashoratlash muhim omil sifatida e'tirof etiladi (Hsu, 2017; Sacks, 2007).

Neyromarketing amaliyotida fMRI, EEG, ko'z harakati trekingi, va biometrik sensorlar yordamida iste'molchilarning stimullarga javob reaksiyalari aniqlanadi (Al Abbas et al., 2019; Lin et al., 2018). Coca-Cola, Campbell Soup kabi yirik brendlar ushbu usullar orqali reklama va mahsulot dizaynini optimallashtirishga muvaffaq bo'lgan.

Hozirgi raqamli muhitda vizual stimullar, semantik uyg'unlik va sensor tajribalar orqali foydalanuvchi ongiga ta'sir ko'rsatish marketingda ustuvor yondashuvga aylangan. Masalan, Ramachandran & Hirstein (1999) vizual korteksni rag'batlantiruvchi simmetriya, yorqinlik, va kontur elementlari orqali e'tibor va xotira uyg'otilishi mumkinligini ta'kidlagan. Shuningdek, Zaltman (2003) tomonidan ishlab chiqilgan ongosti metafora xaritalari (ZMET) modeli iste'molchining ichki ehtiyojlari va assotsiatsiyalarini vizual kodlar orqali anglashga yordam beradi.

O'zbekistonda esa neyromarketing yondashuvlarining tatbiqi, xususan turizm sohasida, hali boshlang'ich bosqichda. Bunga asosiy sabab — lokal miqyosda nevropsixologik marketing samaradorligini isbotlovchi ilmiy tadqiqotlarning yetishmasligidir. Saeed & Shafique (2020) ta'kidlaganidek, bugungi kunda sayohatchilarning 80% ga yaqini safar rejalashtirishda ijtimoiy tarmoqlardagi vizual va emotsional kontentga tayangan holda qaror qabul qiladi. Shu sababli, emotsional jalb qilish, semantik uyg'unlik va konversiyani kuchaytiruvchi vizual elementlar ayni turizm brendingi uchun strategik ahamiyat kasb etadi.



Umuman olganda, mavjud adabiyotlar neyromarketing konsepsiyasining turizmga qo'llanilishi orqali brend xotirasini mustahkamlash, emotsional bog'lanish yaratish va foydalanuvchini ongosti darajada jalb qilish imkoniyatlarini tasdiqlaydi. Biroq bu yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun UX/UI dizayn, interaktivlik, personalizatsiya va semantik uyg'unlikka oid yondashuvlar ham tizimli tarzda birlashtirilishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda integratsiyalashgan neyrosemantik vizual kontent tahlili yondashuvi asosida www.uzbekistan.travel rasmiy web-sayti hamda "Discover New Uzbekistan" promoroligi neyromarketing mezonlari bo'yicha tahlil qilingan. Tadqiqot usuli neyrobiologik, semiotik va UX/UI analitikalarini o'z ichiga olgan kompleks, ko'p qatlamli yondashuvga asoslangan.

Metodologik asos sifatida quyidagi nazariy va amaliy modullar tanlandi:

1. Limbik tizim (emotsional markaz) tahlili

Bu yondashuv miyaning hissiy qarorlar uchun javobgar qismi — limbik tizim reaksiyalariga asoslanadi. Tadqiqotda iliq ranglar (sariq, och yashil, qizil), mehrli yuzlar va tabassumlar kabi vizual stimullar limbik tizimni qanday faollashtirishi baholangan. Sahnalardagi emotsional yondashuv darajasi limbik faollik orqali tahlil qilingan. (Damasio (1994), Zaltman (2003))

2. Ko'rish korteksi tahlili

Ko'rish korteksi — miyaning orqa qismida joylashgan, vizual stimullarni qayta ishlaydigan zona. Yorqin kontrastlar, simmetrik shakllar va diqqatni tortuvchi dizayn elementlari bu qismni rag'batlantiradi. Tadqiqotda vizual elementlarning xotirada saqlanish va e'tiborni jalb qilishdagi roli baholangan.

(Ramachandran & Hirstein (1999), Neuromarketing in branding literature)

3. Ongosti stimullar va vizual metaforalar

Odamlar ko'p hollarda qarorlarni ongli emas, ongosti darajada qabul qiladilar. Tadqiqotda video sahnalaridagi kamera harakatlari, yorug'lik o'zgarishi, obyektlar joylashuvi va vizual metaforalar orqali hosil bo'lgan semantik effektlar o'rganilgan.

Misollar:

Kamera yuqoriga ko'tarilishi → rivojlanish hissi

Yorug'likdan qorong'iga o'tish → xavf signali

Sekin harakat → xotirjamlik va ishonch (Zaltman (2003), Kahneman (2011))

4. Ovoz va musiqa psixologiyasi

Auditoriyaga emotsional ta'sir ko'rsatishda tovush va musiqa hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqotda fon musiqalarining ritmi, milliy ohanglar va sokinlik darajasi miyada dopamin ajralishiga qanday ta'sir ko'rsatishi, shuningdek foydalanuvchining xavfsizlik hissi va sayohat istagini oshirishdagi roli tahlil qilingan. (Sacks (2007), Neuromarketing & Sound Studies)

5. Aks ettiruvchi neyronlar faolligi

Videodagi hissiy holatlar — masalan, kulgu, raqs, insonlararo samimiy aloqa — tomoshabinda aks ettiruvchi neyronlar faolligi orqali bevosita emotsional javob uyg'otadi. Tadqiqotda bu hodisalarning tomoshabinda qanday hissiy rezonans tug'dirishi tahlil qilingan. (Rizzolatti & Craighero (2004), Mirror Neuron Theory)

TAHLIL VA NATIJALAR

3.1. www.uzbekistan.travel veb-sayti bo'yicha neyromarketing tahlili

O'zbekistonning rasmiy turizm portali — uzbekistan.travel — mamlakatning milliy turizm brendini shakllantirish, tashqi auditoriya bilan raqamli sensor aloqa o'rnatish va tashrif qarorlarini neyropsixologik darajada rag'batlantirishga xizmat qiluvchi strategik platforma sifatida namoyon bo'ladi. Saytning vizual arxitekturasini, informatsion muvozanati, navigatsion ergonomikasi va foydalanuvchi interfeysi (UX/UI) neyromarketing nuqtai nazaridan baholaganda, muayyan afzalliklar bilan bir qatorda kognitiv va affektiv jihatdan sustlashuvga olib keluvchi kamchiliklarga ham ega.

1. Veb-dizayn va estetika

Rang palitrasi: Saytda asosiy urg'u oq fonda qora serif shriftlar va qizil CTA (harakatga undash) tugmalar orqali berilgan. Qizil rang neyromarketingda limbik tizimni faollashtiruvchi urg'u rangi sifatida tanilgan bo'lsa-da (Zaltman, 2003), bu yerda uning haddan ortiq takrorlanishi diqqatning habituatsiya (moslashuv) holatiga tushishiga olib kelmoqda.

Shrift tanlovi: Serif va sans-serif shriftlarning kombinatsiyasi orqali kognitiv assotsiatsiyalar — ya'ni tarixiy meros va zamonaviylik o'rtasida vizual ko'prik yaratishga urinish mavjud. Biroq, bu uyg'unlik butun sahifalarda izchil saqlanmagani sababli foydalanuvchida semantik identifikatsiya va brend yodda saqlanish darajasida muayyan beqarorlik seziladi.



Rasmlar: Portalda ishlatilgan yuqori aniqlikdagi HDR suratlar vizual korteksni stimulyatsiya qilishda (Ramachandran, 1999) muhim rol o'ynaydi. Biroq, mobil ko'rinishda tasvir-matn disbalansi foydalanuvchi ongida kognitiv dissonans uyg'otadi.

2. Navigatsiya va foydalanuvchi tajribasi (UX)

Yuqori navigatsion menyu: "Cities", "Attractions", "Tourism for all" kabi menyular kategorik soddalik tamoyiliga asoslangan va mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilgan. Bu esa prefrontal korteksning tez orientatsiyasiga xizmat qiladi.

Ammo butun sayt bo'ylab hover effektlar, tranzitsion animatsiyalar yoki mikrointeraksiyalarning mavjud emasligi foydalanuvchida kognitiv interaktivlikning pasayishiga olib keladi.

Mobil UX kamchiliklari: Ayrim tugmalar, xususan "More", "All top routes" CTA elementlari mobil interfeysda ergonomik chegaralarga yaqin joylashgani tufayli foydalanuvchi uni bosishida noqulaylik tug'diradi — bu esa sensor-motorik uzilish deb baholanadi.

3. CTA (harakatga undash) va tugmalar

Tugmalar qizil fonda oq matn bilan taqdim etilgan bo'lib, ko'rish korteksidagi vizual kontrastga erishilgan. Biroq ularning bir xil ko'rinishdagi shakllari va reaktivlikning pastligi sababli affektiv e'tibor pasayadi.

"More", "Pamflet", "All types of tourism" kabi chaqiriq xabarlar neyromarketingda periferik kognitsiyalarni faollashtirishga yetarli emas. "Plan your trip now", "Let us guide you" kabi harakatga chaqiriqlar yo'qligi konversiya imkoniyatlarini cheklaydi.

4. Kontent sifati va semantik yuk

Kontent tematik bo'limlarga ajratilgan bo'lsa-da, matnlar ko'pincha emotsional-hisoblanadigan diskurs(ifoda uslubi)ga asoslangan va informativlik darajasi past. Bu holat ratsional qaror qabul qilishda foydalanuvchini boshqa sahifalarga yo'naltirishga majbur qiladi.

Fotogaleriya blokida vizual salmoq yuqori, ammo kategorik filtrlash yoki semantik qidiruv tizimining yo'qligi foydalanuvchining maqsadli kontentga yetishish tezligini pasaytiradi.

5. Yordamchi elementlar va navigatsion orientatsiya

Saytda onlayn chat moduli mavjud bo'lib, u foydalanuvchi bilan real vaqtli sensor bog'lanishni ifodalaydi — bu interaktivlikda ishonch hissini shakllantirishga xizmat qiladi.

Footerda joylashgan kontaktlar, matbuot uchun havolalar va agentliklar bo'limi professional imidj beradi, biroq asosiy navigatsion savollarga ("Qayerdan boshlash kerak?", "Menga mos tur qaysi?") javob beruvchi yo'naltiruvchi bloklar yetishmaydi — bu esa kognitiv aniqlikni buzadi.

1-jadval. "Discover New Uzbekistan" promo roligi tahlili

Asosiy maqsad: Tarixiylik, madaniy xilma-xillik, mehmondo'stlik va tabiiy go'zallik orqali emotsional bog'lanish yaratish.

Neyromarketing mezonlari asosida baholash:

Yo'nalish	Baholash (10 ballik)	Izoh
Vizual estetika	9/10	Ranglar, yorqinlik, rakurslar professional ishlangan.
Emotsional jalb qilish	7/10	Kulgu, ovqat, musiqa, hunarmandchilik orqali emotsiya uyg'otiladi.
Ongosti stimullar	6/10	Tabiat, raqs, hunar orqali his uyg'otiladi, lekin interaktivlik kam.
Matnlar va obraz uyg'unligi	5/10	Ba'zi matnlar vizual bilan to'liq mos emas.
Xotirada saqlanish salohiyati	8/10	Tandir non, gilam to'quvchi, raqqosa obrazlari esda qoladi.
Vizual diversifikatsiya	6/10	Milliy obrazlar kuchli, ammo zamonaviy xizmatlar kam.

Kuchli tomonlar:

Yuqori sifatli kadrlar va yorqin tafsilotlar.

Milliy liboslar, hunarmandchilik orqali brend xotirasining shakllanishi.

Subtitrlar va tovushsiz ko'rish imkoniyati — universal auditoriyaga moslashuv.

Tanqidiy jihatlar va tavsiyalar:



Muammo	Tavsiya
Matnlar umumiy, baʼzida kontekstdan uzilgan	Har bir sahnaga mos, sodda metaforik matnlar kerak
Koʻplab sahnalar yuqoridan suratga olingan	Ichki tajriba beruvchi yaqin planlar kiritilishi lozim
Zamonaviy infratuzilma aks ettirilmagan	Turistik markazlar, texnologiyalar koʻrsatilishi zarur
Harakatga undovchi sahnalar kam	Interaktiv sahnalar va turistik tajriba tasviri kiritilishi lozim

Umumiy baho (neyromarketing mezonlariga koʻra): 7/10

Tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistonning rasmiy turizm brendi www.uzbekistan.travel veb-sayti va “Discover New Uzbekistan” videoroligi vizual va emotsional kommunikatsiya jihatidan maʼlum darajada samarali, biroq ular neyromarketing mezonlari nuqtai nazaridan hali toʻliq optimallashtirilmagan. Quyidagi muhokamalar asosiy jihatlarga eʼtibor qaratadi:

1. Vizual dizayn va emotsional stimulyatorlar uygʻunligi

Sayt va videorolikda milliy obrazlar, tabiiy manzaralar, madaniy elementlar orqali brendning emotsional asoslari berilgan boʻlsa-da, bu elementlar har doim foydalanuvchida kuchli limbik (hissiy) reaksiya chaqira olmayapti. Masalan, saytdagi CTA tugmalarining haddan tashqari takrorlanishi, animatsiya va interaktivlikning yoʻqligi, hissiy triggerlarning sust ishlashi foydalanuvchi harakatini ragʻbatlantirishni pasaytiradi. Shu bilan birga, rolikdagi sahnalar koʻp hollarda yuqoridan tasvirga olingani sababli turistik tajribaning “ichki holati” yetarlicha ifodalanmagan, bu esa aks ettiruvchi neyronlar faoliyatini kuchsizlantiradi.

2. Semantik uygʻunlik va xotirada saqlanish

Matn va vizual obrazlar oʻrtasidagi semantik moslik neyromarketingda juda muhim hisoblanadi. Tadqiqotda aniqlanishicha, rolikdagi ayrim matnlar umumiy va stereotipik boʻlib, ular sahnadagi voqea yoki obraz bilan bevosita semantik bogʻlanmaydi. Bu esa foydalanuvchining semantik xotirasida mustahkam assotsiatsiyalar shakllanishini qiyinlashtiradi.

3. UX/UI va foydalanish qulayligi

Sayt UX/UI nuqtai nazaridan tarkibiy jihatdan aniq, lekin zamonaviy dizayn talablari — hover effektlar, mikrointeraksiyalar, shaxsiylashtirish imkoniyatlari yetarli darajada qoʻllanilmagan. Foydalanuvchining diqqatini jalb qiluvchi animatsiyalar va harakatga undovchi elementlar yetishmaydi. Mobil versiyada esa baʼzi tugmalarning chekkada joylashuvi va rasmlarning notoʻgʻri kesilishi — bu holat UX nuqtai nazaridan salbiy faktor hisoblanadi.

4. Milliylik va global auditoriya

Brendning asosiy kuchli tomoni — bu milliy madaniyat va anʼanalarni tasvirlashdagi samimiylilik. Liboslar, hunarmandchilik, non yopish, gilam toʻqish kabi elementlar xotirada saqlanish va identifikatsiya qilish salohiyatini oshiradi. Biroq, ushbu milliy obrazlar zamonaviy xizmatlar bilan uygʻunlashtirilmagani, masalan — mehmonxonalar, transport, raqamli xizmatlar koʻrsatilmaganligi — Oʻzbekistonni zamonaviy turizm manzili sifatida toʻliq yoritmaydi. Bu esa ayniqsa xorijiy auditoriyani jalb qilishda salbiy taʼsir koʻrsatadi.

5. Neyromarketing strategiyasini kuchaytirish zarurati

Raqobat kuchayib borayotgan global turizm bozorida neuromarketingga asoslangan vizual va tovushli triggerlar yordamida mijozni hissiy, ongosti va ratsional jihatdan jalb qilish muhim. Sayt va rolikda limbik tizimni faollashtiruvchi elementlar mavjud boʻlsa-da, ularning uygʻunligi va uzluksizligi taʼminlanmagan. Bu esa mijozda toʻliq immersion (shoʻngʻish) tajribasini shakllantirishga toʻsqinlik qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, www.uzbekistan.travel veb-platformasi Oʻzbekistonning turistik imidjini yaratishda vizual va semantik jihatdan boy kontentga ega boʻlib, mamlakatning tabiiy, tarixiy va madaniy merosini global auditoriyaga yetkazishda muhim kommunikatsion vosita vazifasini bajaradi. Sayt dizayni va strukturasi limbik tizim va koʻrish korteksi orqali hissiy va vizual jalb qilishga urinadi, biroq foydalanuvchi interfeysi (UX/UI) hamda neyromarketingning zamonaviy mezonlari nuqtai nazaridan muayyan zaifliklar mavjud.

Xususan:

CTA tugmalarining vizual diversifikatsiyasi va semantik kuchi past, bu esa foydalanuvchini harakatga undashda limbik faollikni susaytiradi;

Shriftlar va ranglar uygʻunligi toʻlaqonli brend identifikatsiyasini shakllantirmoqda, bu esa semantik moslik va vizual xotira shakllanishini cheklaydi;

Mobil versiya ergonomikasi foydalanuvchi sensorli muloqotini qiyinlashtiradi, bu esa taktil interfeys samaradorligini pasaytiradi;

Interaktivlikning yetishmasligi esa kognitiv yoʻnaltirish va qaror qabul qilishni osonlashtiruvchi ongosti stimullarning toʻliq ishlatilmaganini koʻrsatadi.



Shuningdek, “Discover New Uzbekistan!” videoroligi neyromarketingning emotsional triggerlaridan – milliylik, quvonch, iliqlik kabi hissiy stimullardan samarali foydalansa-da, zamonaviy marketingda zarur bo‘lgan immersiv vizual tajriba, raqamli xizmatlar ko‘rsatkichlari, va foydalanuvchining o‘zini joyda his qilish kabi aspektlarni yetarlicha yoritish ham muhim hisoblanadi.

Kelajakda www.uzbekistan.travel platformasi va unga birlashtirilgan promo-kontentlar quyidagi yo‘nalishlarda takomillashtirilishi tavsiya etiladi:

Aks ettiruvchi neyronlar (mirror neurons) faolligini kuchaytiruvchi ijtimoiy vizual sahnalar (kulgu, mehmondo‘stlik, tajriba almashish holatlari);

Personalizatsiyalangan CTA lar, foydalanuvchining ongosti reaksiyasiga asoslangan interfeys moslashuvchanligi;

Interaktiv navigatsiya tizimlari orqali “kashf qilishga undovchi” muloqotga asoslangan dizayn yechimlari.

Mazkur takomillashtirishlar orqali O‘zbekistonning raqamli turizm brendi nafaqat vizual jihatdan, balki neyropsixologik va semantik darajalarda ham auditoriyada barqaror xotira izlari qoldira oladi. Bu esa xalqaro bozorda turistik raqobatbardoshlikni sezilarli darajada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Al Abbas, T., AlZoubi, M., & AlRahmi, W. (2019). Neuromarketing tools and their application in marketing. *International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences*, 9(4), 22–35. <https://doi.org/10.6007/IJARBS/v9-i4/5833>
2. Damasio, A. R. (1994). *Descartes' error: Emotion, reason, and the human brain*. New York: G.P. Putnam.
3. Fortunato, V., Giraldo, J. D. M. E., & de Oliveira, J. H. C. (2014). A review of studies on neuromarketing: Practical results, techniques, contributions and limitations. *Journal of Management Research*, 6(2), 201–220. <https://doi.org/10.5296/jmr.v6i2.5449>
4. Hsu, C.-L. (2017). Exploring the link between emotional branding and consumer decision-making in tourism. *Journal of Travel Research*, 56(2), 142–156. <https://doi.org/10.1177/0047287516631134>
5. Kahneman, D. (2011). *Thinking, fast and slow*. New York: Farrar, Straus and Giroux.
6. Kumar, H., Talwar, M., & Kaur, P. (2020). Understanding neuromarketing: The impact of neuroscience on consumer behavior. *International Journal of Consumer Studies*, 44(3), 231–243. <https://doi.org/10.1111/ijcs.12568>
7. Lin, Y., Liang, C., & Zhu, T. (2018). EEG-based evaluation of consumer preference for tourism promotional videos. *Tourism Management Perspectives*, 27, 59–67. <https://doi.org/10.1016/j.tmp.2018.04.004>
8. Ramachandran, V. S., & Hirstein, W. (1999). The science of art: A neurological theory of aesthetic experience. *Journal of Consciousness Studies*, 6(6-7), 15–51.
9. Rizzolatti, G., & Craighero, L. (2004). The mirror-neuron system. *Annual Review of Neuroscience*, 27, 169–192. <https://doi.org/10.1146/annurev.neuro.27.070203.144230>
10. Sacks, O. (2007). *Musicophilia: Tales of music and the brain*. New York: Knopf.
11. Saeed, R., & Shafique, M. (2020). Neuromarketing in tourism: Bridging emotional engagement with destination branding. *Journal of Tourism Intelligence and Smartness*, 2(1), 45–56.
12. Zaltman, G. (2003). *How customers think: Essential insights into the mind of the market*. Boston: Harvard Business School Press.
13. Khamdamov, S. J. (2024). Impact of Exchange Rate Fluctuations on Uzbekistan's Export-Led Growth. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 2(8), 431-436.
14. Khamdamov, S. J. (2024). The Role of Foreign Direct Investment (FDI) in Uzbekistan's Economic Growth. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 2(8), 437-443
15. Shoh-Jakhon, K. (2023). Theoretical and Methodological Aspects of Intensive Economic Growth in Ensuring Sustainable Economic Development. *Social and Economic Studies within the Framework of Emerging Global Developments Volume 3*, 283.
- 16.
17. Khamdamov, S. J., & Usmanov, A. (2022). New methodological recommendations for economic growth. *Архив научных исследований*, 2(1).
18. Хамдамов, Ш. Ж. (2022). БАҲҚАРОП ИҚТISODIЙ РИВОЖЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(Maxsus_son), 19-24



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>